

“Tarmoq ma’lumot bazasi. Bulutli texnologiyalar” mavzusiga oid muammoli topshiriq

Vaziyat. Tasavvur qiling, siz yirik kompaniyada IT mutaxassis sifatida ishlaysiz. Korxonada mijozlar, mahsulotlar va hujjatlar haqidagi ma’lumotlar turli kompyuterlarda va oddiy fayllarda saqlanadi.

Bu esa quyidagi muammolarga olib kelmoqda:

- Ma’lumotlar tarqoq va tartibsiz
- Qidirish va tahlil qilish qiyin
- Ma’lumotlar yo‘qolishi xavfi mavjud
- Xodimlar bir vaqtda ishlay olmaydi
- Takroriy ma’lumotlar ko‘p

Zamonaviy texnologiyalar rivojlanib borayotgan bir paytda korxonada tarmoq ma’lumotlar bazasi va bulutli texnologiyalarni joriy etish orqali ish samaradorligini oshirmoqchi.

Ammo quyidagi muammolar mavjud:

- Xodimlarning bilim darajasi yetarli emas;
- Dasturiy ta’minot xarajatlari yuqori;
- Internetga bog‘liqlik;
- Xavfsizlikka bo‘lgan xavotirlar;
- Eski tizimdan yangi tizimga o‘tish qiyin;

Topshiriq. Muammoni hal qilish bo‘yicha yechim ishlab chiqish.

Quyidagi savollarga asoslangan holda yechim tayyorlang:

1. Muammoni tahlil qilish:

- Korxonada ma’lumotlar bilan ishlashdagi asosiy muammolar nimalar?
- Lokal saqlash va oddiy fayllarning kamchiliklari qanday?

2. Yechimlar ishlab chiqish:

- Tarmoq ma’lumotlar bazasi va bulutli tizimni qanday joriy qilish mumkin?
- Qaysi texnologiyalar samarali?

3. Strategiya:

- Bosqichma-bosqich qanday joriy etasiz?
- Xodimlarni o'qitish qanday amalga oshiriladi ?

4. Xavf va cheklovlar:

- Dasturiy muammolar qanday?
- Xarajatlarning yuqoriligi qanday ta'sir qiladi?
- Xodimlarning yangi tizimga moslashishida qanday qiyinchiliklar bo'ladi?

5. Natijalarni baholash:

- Samaradorligini qanday o'lchaysiz?
 - Qaysi KPI ko'rsatkichlardan foydalanasiz?
- (vaqt tejalishi, xatolik kamayishi, loyiha sifati, xarajatlar kamayishi)

Muammoli topshiriqni bajarish orqali kutilayotgan natija:

Talaba quyidagilarni namoyish etishi kerak:

- Tarmoq ma'lumotlar bazasi tushunchasi;
- Bulutli texnologiyalar mohiyati;
- Ma'lumotlarni boshqarish;
- Zamonaviy IT tizimlardan foydalanish;
- Muammoni tahlil qilish va yechim ishlab chiqish;